

QASHQADARYO VILOYATIDA TARQALGAN MOLLYUSKALAR FAUNASI

SH.M.Bektashev, Ochilov Xoliqu Boymurzayevich.

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti Tabiiy fanlar fakulteti Biologiya kafedrasida o'qituvchisi

Abstract. Analysing spreading of mollusca in Kashkadarya region of Uzbekistan. Therefore region common all types of land and water clams Bioecology studied. However, the number of common land and the importance of the world of flora and fauna in the water clams spread across the landscape and the importance of clean drinking water were studied. Uzbekistan mollusks fauna and ecology malakolog scientific work being carried out by scientists.

Ilmiy ma'lumotlarga qaraganda, yer sharining turli ekologik sharoitlarga mansub biotoplarida mollyuskalarning 90 mingdan ortiq turi yashaydi.

Mollyuskalar tipiga mansub jonzorlar xalqaro nomenklaturaga mansub sistematikaga muvofiq 5 ta sinfga bo'linib, ular turli joylarda yashashga moslashgandir.

Ko'pchilik mollyuskalarning turlari har – xil o'simliklarga iqtisodiy zarar yetkazsa, qorin oyoqli hamda yonbosh nervli mollyuskalar sinfiga oid turlari esa hayvonlar uchun eng xavfli hisoblangan trematoda, sestoda va nematoda sinflariga mansub gelmintlarni hayvonlarga yuqtirishda oraliq xo'jayin ekanligi aniqlangan.

Ayrim mollyuska turlari esa, ko'pchilik hayvonlarga yem bo'lishdan tashqari, ularning chig'anoqlari sanoatda katta ahamiyatga ega. Shuning uchun ham ularni faunasini, bioekologiyasini o'rganish katta ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasining janubiy hududlarida yashovchi mollyuskalarni faunasi to'liq o'rganilmaganligi sababli, biz 2018 – 2023 yillar mobaynida janubiy hududlarning turli biotoplaridan, asosan bahor va kuz oylarida 2608 ta mollyuska nusxalarini yig'dik. Yig'ilgan mollyuskalar turlari qo'yidagi uslubiyot asosida o'rganildi.

Suv mollyuskalari turli suv qirg'oqlaridan, suvli joylardan, suvdagi toshlar ostidan yig'ildi.

Quruqlikda yashovchi mollyuskalar esa o'tlar orasidan, toshlar, kesaklar orasidan, qo'tonlar atrofidan hamda issiqxonalar ichidan yig'ilib, 70 foizli etil spirtiga solinib fiksatsiya qilindi.

Yig'ilgan mollyuskalarni turlari laboratoriya sharoitida lupalar hamda binokulyar mikroskop (MBS -1) ostida tekshirilib, ularning turlari aniqlandi.

Mollyuska turlarini aniqlash ularga xos morfofizologik belgilari hisobga olinib, O'zbekistonning janubiy hududlarida yashovchi 15 avlodga va 22 turga mansub mollyuska turlari aniqlandi.

Suv mollyuskalari.

1. *Lymnaea* авлоди.

1.1. *L.truncatula* (Muller., 1774).

Yashash joyi: Kitob, Shahrisabz, Yakkabog' va G'uzor tumanlaridagi suv havzalarida.

1.2. *L. bactrians* (Hutton,).

Yashash joyi: G'uzor, Deqonobod hamda Nishon tumanlaridagi suv havzalari, zovurlarda.

1.3. *L. auricularia* (L., 1758).

Yashash joyi: Chimqo'rg'on, Tallimarjon suv omborlari va o'zanlari, Nishon, Kasbi tumanlari zovurlari, Nishon Davlat nasilchilik zavodining qo'ylari boqiladigan maydonlardagi, suv havzalari.

1.4. *L. subdisjuncta* (Nevi).

Yashash joyi: Qarshi, Nishon, Yakkabog', Qamashi hamda Chiroqchi tumanlariga qarashli suv havzalari.

1.5. *Lymnaea* sp.

Yashash joyi: Kitob tumaniga qarashli suv havzalari, Miraki qishlog'idagi buloq suvlari, Yakkabog' tumanidagi Toshqurg'on va Galabuloq qishlog'idagi suv havzalarida.

2. *Costatella* авлоди.

2.1. *C. acuta* (Drap., 1801).

Yashash joyi: Yakkabog', Nishon, Koson, G'uzor, Chiroqchi tumanlari hududlariga qarashli biotoplar.

3. *Planorbis* авлоди.

3.1. *Pplanorbis* (L., 1758).

Yashash joyi: Samarqand viloyati, Pastdarg'om, Juma tumanlari biotoplarida hamda Chiroqchi tumanlariga qarashli hududlarda.

4. *Anisus* avlodi.

4.1. *A. convexinscutes* (Hutton.,).

Yashash joyi: Koson, Tallimarjon tumanlariga mansub hududlarga qarashli biotoplar.

Tuproq mollyuskalari.

1. *Oxyloma* avlodi.

1.1. *O.elegans* (Pisso., 1826).

Yashash joyi: Yakkabog', G'uzor, Kitob tumanlariga mansub bog'lar issiqxonalar, parniklar va maydonlarda.

2. *Psendanapeus* avlodi.

2.1. *P. sogdianus* (Mart., 1874).

Yashash joyi: Muborak, Mirishkor tumanlariga qarashli biotoplar.

3. *Deroceras* avlodi.

3.1. *D.leave* (Mull., 1774).

Yashash joyi: Koson, Chiroqchi tumanlariga qarashli maydonlar.

4. *Candaharica* avlodi.

4.1. *C.rutellum* (Hutton.,1849).

Yashash joylari: Qarshi tumaniga qarashli qo'ylar boqiladigan maydonlar. Qarshi shahridagi ko'chat yetishtiriladigan issiqxona.

5. *Zanitoides* avlodi.

5.1. *Z. nitidus* (Mull., 1774).

Yashash joyi: Kitob, Shaxrisabz, Yakkabog', G'uzor, Qamashi tumanlariga qarashli turli biotoplar.

6. *Macrochlamus* avlodi.

6.1. *M. sogdiana* (Mart., 1871).

Yashash joyi: Shaxrisabz, Yakkabog', Nishon tumanlariga qarashli biotoplar.

7. *Bradyaena* avlodi.

7.1. *B.phaeozona* (Mart.,1874).

Yashash joyi: Deqonobod tumaniga qarashli Toshqo'rg'on B Oqmachit, Gala buloq qishloqlari.

8. *Ponsodenis* avlodi.

8.1. *P. semenove* (Mart., 1874).

Yashash joyi: Tallimarjon shahriga qarashli biotoplarda, Chimqo'rg'on va Pachkamar suv omborlari atroflarida.

9. *Leucozonella* avlodi.

9.1. *L. rubens* (Mart), 1874).

Yashash joyi: Langar qishlog'i, Sayid tog' oldi maydonlari, Koson tog' etaklari.

9.2. *L. rufispira* (Mfrrt., 1874).

Yashash joyi: Toshqo'rg'on, Chimqo'rg'on, Miroqi qishloqlarida.

9.3. *L. crassicosta* (Schileyno, 1979).

Yashash joyi: Kasbi tumaniga qarashli qoraxo'ja qishlog'i, Deqonobod tumaniga qarashli Darxon, G'uzor tumanida Shurguzar qishloqlarida.

10. *Xeropicta* avlodi.

10. *X. candaharica* (Pfeiffer, 1846).

Yashash joyi: Deqonobod tumaniga qarashli Ko'kabuloq, Pachkamar suv ombori atroflaridagi qishloqlar, Nishon va Koson tumanlarida.

Shunday qilib, Qashqadaryo viloyatining suv mollyuskalari faunasi Mollyuskalarning 4 avlodiga mansub 8 turdan, quruqlik mollyuskalari esa 10 avlodga mansub 12 turdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Izzatullayev Z, Pozilov A. "Malakologiya" Guliston -2007 y.5- 8 bet.
2. Boymurodov H, Davronov B, Bektashev Sh. Zarafshon daryosi sohilida ikkipallali mollyuskalarning biotoplarda tarqalishi. Buxoro -2015y.4-5 bet.
3. Bektashev Sh, Davronov B. O'zbekistonda malakologiya faning rivojlanishi. Buxoro-2015y.4-5 iyun.131-132 – bet.(Respublika ilmiy-amaliy) konferensiyasi.
4. Qudratov J, Izzatullayev Z. Nurota tizma tog'lari g'alsamli qorinoyoqli noyob, remekt va endim mollyuskalarining ekologiyasi. Buxoro -2015y 170-171 bet.
5. Karimqulov A., Bektashev Sh. *Xeropicta candaharica* mollyuskasining gelmentlarni oraliq xo'jayini sifatidagi ahamiyati. Zamonoviy parazitologiyaning dolzarb muammolari (Respublika ilmiy- amaliy anjuman materiallari) Qarshi - 2015y 29-30 bet.
6. Pozilov A. "Malakologiyadan laboratoriya mashg'ulotlari to'plami" (O'quv – uslubiy qo'llanma) Guliston – 2007 y 18- 22 bet.
7. Abramotov, M., Kuchboev, A., Ruziev, B., & Sobirov, K. (2022). Diversity of Gastrointestinal Nematodes in Domestic Ruminants of Uzbekistan. *Pakistan Journal of Zoology*, 54(5), 2445-2448.
8. Orziyeva, Y., & Davronov, B. (2024). MOLLUSCAN FAUNA AND ECOLOGY OF MOUNTAIN KARATEPA. *INTERNATIONAL JOURNAL OF EUROPEAN RESEARCH OUTPUT*, 3(9), 73-77.
9. Xosilova, G., & Ismoilova, G. (2021). MOLLYUSKALARINING TABIAT MUVOZANATIDAGI IJOBIY VA SALBIY AHAMIYATI. *Scientific progress*, 2(5), 397-400.
10. kizi Norkobilova, Z. B., Rakhmatullayev, A. Y., & ogli Boyjigitov, O. D. (2023). PRELIMINARY INFORMATION ABOUT DRAGONFLIES FAUNA DISTRIBUTED IN KASHKADARYA REGION. *World of Scientific news in Science*, 1(3), 5-14.
11. Yusupovich, R. A. (2022). ECOLOGICAL-FAUNIST ANALYSIS OF COXINALLIDES (COLEOPTERA, COCCINELLIDAE) OF THE KARSHI OAKH. *Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development*, 4, 331-335.
12. Bobonazarov, G.Y., Omonova, NR va Rabimova, ZS (2022). QO'YLARNING NOZOFARNETIK BO'YICHALARINI O'rganish *Oestrus ovis* L.(DIPTERA: OESTRIDAE). *ZAMONAVIY DUNYODA FAN VA INNOVATSIYANING ROLI* , 1 (1), 95-101.